

MUHAMMAD RIZO OGAHINYNING ASARLARINING XON VA SHOIR FERUZNING SIYOSIY-MA'RIFIY TARBIYASIGA TA'SIRI

Ergashov Shohijahon

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Yaponshunoslik yapon-ingiliz guruhi 2-kurs talabasi

Anatatsiya: *Ushbu maqola Muhammad Rizo Ogahiyning insonparvarlik ruhida yozilgan asarlari Xiva xoni Feruzshoh Muhammad Rahimxon II ga tasiri haqida so'z boradi*

Abstract: *This article is about the impact of Muhammad Reza Ogahi's humanitarian works on Feruzshah Muhammad Rahim Khan II, Khan of Khiva*

Kalit so'zlar: „Navo“, „Dugoh“, „Segoh“ „Riyoz ud-davla“, „Jome ul-voqeoti Sultoni“, „Zubdat ut-tavorix“, „Gulshani davlat“, „Shohidi iqbol“

Key words: „Navo“, „Dugoh“, „Segoh“, „Riyaz ud-Dawla“, „Jome ul-Waqeoti Sultani“, „Zubdat ut-Tawarikh“, „Gulshani State“, „Shahidi Iqbal“

KIRISH

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li – Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri bo'lib, Navoiydan keyin eng “ko'p va xo'b” she'r aytgan shoirlardandir. Ogahiy 1809 yil 17 dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlog'ida (Hozirgi Ogahiy nomli jamoa xo'jaligi) dunyoga kelgan.

Munis boshlab qo'ygan, ammo, tamomlay olmagan tarixiy “Firdavs ul-iqbol” asarini yozib tugatdi. Bundan tashqari Xiva xonligi tarixiga oid “Riyoz ud-davla”, “Jome ul-voqeoti Sultoni”, “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” nomli tarixiy asarlar yozdi. Ogahiy jahon madaniyatini nodir durdonalari hisoblangan Sa'diy Sheroziyning “Guliston”, Nizomiyning “Haft paykar”, Hiloliyning “Shoh va gado”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Jomiyning “Yusuf va Zulayho” kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, didaktik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

ASOSIY

Ogahiy ijodida XIX asr Xiva xonligidagi ijtimoiy hayot o'z ifodasini topgan. Bu davrga kelib, Turkiston Rusiya tomonidan bosib olingandi, xalq ikki yoqdan zulm ostida qolgandi. Ogahiy bundan qattiq qayg'urardi, xalq hur, ozod yashashini orzu qilardi. Ogahiy dunyoga, insonga tuganmas muhabbat, hayotga cheksiz mehr bilan qaraydi, ijtimoiy jarayonlarga qattiq qiziqadi. Shoir insonni hayot go'zalliklarini, muhabbat shavq zavqini to'lib toshib tarannum etadi. Mutafakkir o'z asarlariga ijtimoiy fikrlarni mahorat bilan singdirib yuboradi. Misol uchun mashhur “Feruz” ashulasidagi quyidagi satrlarni eslaylik:

Ey shoh, karam aylar chog'i teng tut yomonu yaxshini,
 Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.
 Xoki taning barbod o'lur, oxir jahonda necha yil,
 Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina.

Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-ma'rifiy tarbiyasiga ta'sir qiladi. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bag'ishlab qasidalar yozgan. Shoirning "Qasidai nasihat" degan qasidasi bunga yaqqol misol bo'ladi. Asar Feruzga bag'ishlangan. Ogahiy o'z nasihatlarida saltanatni boshqarishning yo'lyo'riqlarini ko'rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo'llarini belgilab beradi. Bu qasida masnaviy janrida yozilgan bo'lib, shoirning siyosiy-ma'rifiy qarashlarini yorqin ifoda qiladi. Shoir fikricha, har qanday davlat boshlig'i hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Podshohi himmatli, shijoatli, adolatli, g'ayratli, saxovatli, hayoli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli kambag'alparvar bo'lishi zarur. Hukmdor shu fazilatlarga ega bo'lsa hokimiyati kamol topadi, mamlakati farovon bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Ogahiy davlatni boshqarishning yo'llarini ham ko'rsatib o'tgan. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog'i darkor. Aysh ishratdan, fitna va g'iybatdan, g'aflatdan, yalqovlikdan, zulmrazolatdan, chaqimchilikdan, molparastlikdan uzoq bo'lishi kerak. Xiva xoni Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish to'g'risidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatali baytlarini marmar toshlarga yozdirib arxonalariga qo'ydirgan, ko'p ezgu ishlarni amalga oshirgan. Bu davrda Xorazm xalqi mahalliy boylar va rus bosqinchilari zulmi ostida qolgandi. Lekin shunga qaramay xonlikda madaniy-ma'rifiy ishlar rivoj topdi. Bunda Ogahiyning ma'rifiy hissasi katta bo'ldi. Ogahiyning Feruzga bergan siyosiy saboqlari bugun ham o'z qiymatini yo'qotgan emas. Hukmronligidan oldin ham madaniy an'analar mavjud bo'lgan: asarlar tarjima qilingan, qo'lyozmalar ko'chirilgan, turli kutubxonalar tashkil etilgan. Ogaqiy, Komil, Tabibiy va boshqalar ta'sirida o'zi ham Feruz (baxtli, g'olib) taxallusi bilan she'rlar yozgan. Feruz kitobat ishlariga katta ahamiyat bergan: devon tuzish, tarix yozish, tarjima ishlarini rivojlantirgan. Xorazmda tarjima maktabi yaratgan. Fors va arab adabiyotining eng nodir tarixiy, adabiy, ilmiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildirgan. Uning hukmronligi davrida Ogahiy va Bayo'niylar tomonidan Xorazm tarixiga oid asarlar yozilgan. Komil Xorazmiy mumtoz maqomlar uchun nota yozuvini ixtiro qilgan. Xivada bosmaxona (toshbosma) tashkil ettirgan. Unda Xorazm shoirlari haqidagi „Majmuat ushshuaro“ tazkirasi, Alisher Navoiy asarlari, Xorazm shoirlari devonlari nashr qilingan. Feruz Hindiston, Arabiston, Eron, Turkiya savdogarlari orqali Xorazmga chet ellardan noyob kitoblar keltirtirgan va ularni ko'p nusxalarda ko'chirtirgan, tarix va adabiyotga oid kitoblardan iborat boy kutubxona yaratgan. Feruz me'morlik, naqqoshlik, xattotlik kabi san'at turlarini ham rivojlantirgan. Bu davrda fotografiya va kino san'ati vujudga kelgan, obodonchilik ishlari amalga oshirilgan. Feruz 1871-yil Kyxira Ark qarshisida o'z nomi bilan ataluvchi 2 qavatli Madrasa

qurdirgan (qarang Muhammad Rahimxon madrasasi). Feruzning bevosita rahbarligi va tashabbusi bilan 30 dan ortiq Madrasa, masjid, minora, xonaqolar qad rostlagan. Feruz yerlarni suv bilan ta'minlash, bog'rog'lar barpo etish ishiga ham alohida ahamiyat bergan. Uning buyrugiga muvofiq, Qo'ng'iro't tumani sarhadida katta ariq bunyod etilgan. Hozirda ushbu ariq „Xon arigi“ deb ataladi. Feruz mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlarida lirik she'rlar yaratgan. She'rlari, asosan, ishq-muhabbat mavzuida. Ishq va hayot, sevgi va sadokat Feruz ijodining g'oyaviy asosini tashkil qiladi. Ular ohangdorligi, tasviriy-ifodaviy bo'yoqlarga boyligi va shaklan rangbarangligi bilan ajralib turadi. Uning ko'pchilik g'azallari o'z zamonasida sozandalar va guyandalar tomonidan kuyga solib kuylanib kelingan. She'rlariga „Devoni Feruz“ nomi bilan tartib bergan (1879). Bu devon Muhammad Sharif tomonidan qayta kuchirilgan (1900). Feruzning uzi Paxlavon Mahmudning 350 ruboiysini qo'lda ko'chirib, kitob holiga keltirgan. Feruz Shashmaqom kuylarini o'rgangan, saroyda maqom ansamblini tuzgan. „Navo“, „Dugoh“, „Segoh“ maqomlariga bog'lab kuylar yaratgan. Feruz Sayd Mahruyjon majmuasitsati Sayid Mohi Ruyi Jahon maqbarasida dafn qilingan. She'rlar devoni nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (inv. № 3442, 1119)da saqlanadi. Shoir she'riyatining bosh mavzui – ishq. Uning „Ul oy vasfini vird etsam zabonda“, „Olsa jonim qoshu ko`zing, ikki lab“, „Soldi olam ichra g`avg`o, ey malaksiymo, ko`zing“, „Gulshan ichra sarv yoxud ul qadi mavzunmudur“ kabi ishqiy g'azallari juda mashhur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1)Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз (1845-1910)“ (2018-yil 15-avgust). Qaraldi: 2023-yil 25-oktyabr
- 2)Veselovskiy N. I., Ocherk istoriko-geograficheskix svedeniy o Xivinskom xanstve. Spb, 1877,s.244
- 3)“Ma'naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobidan olindi